

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**LINGUVODIDACTIC MECHANISMS OF DEVELOPING ENGLISH READING
COMPETENCE OF LOGISTICS STUDENTS ON THE BASIS OF AUTHENTIC
MATERIALS*****Mokhidil Yuldasheva****Tashkent Perfect University**Department of Humanities, English teacher*yuldosheva.m@perfectuniversity.uz*Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: authentic materials, ESP, logistics English, reading competence, professional discourse, communicative competence, linguodidactyla, professional terminology, interpretative reading.

Received: 11.06.26**Accepted:** 12.06.26**Published:** 13.06.26

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations, linguvodidactic possibilities and pedagogical effectiveness of using authentic materials in developing English reading competence of logistics students. The research was conducted on the basis of the integration of the competency-based approach, communicative language pedagogy, constructivist educational paradigm and English for Specific Purposes (ESP) methodology. In the process of experimental training, a system of profession-oriented reading tasks was developed based on authentic professional texts related to international logistics activities - multimodal transport documents, customs declaration forms, supply chain analytics reports, warehouse operation manuals and freight forwarding correspondence.

**AUTHENTIC MATERIALS ASOSIDA TALABALARINING INGLIZ TILIDAGI
READING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING LINGVODIDAKTIK
MEXANIZMLARI*****Moxidil Yuldasheva****Toshkent Perfect University**Gumanitar fanlar kafedrasi, ingliz tili o'qituvchisi*yuldosheva.m@perfectuniversity.uz*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit soʻzlar: authentic materials, ESP, logistika ingliz tili, reading competence, professional discourse, communicative competence, lingvodidaktika, kasbiy terminologiya, interpretativ oʻqish.

Annotatsiya: Mazkur maqolada logistika yoʻnalishi talabalarining ingliz tilidagi reading kompetensiyasini rivojlantirishda authentic materialsʼdan foydalanishning nazariy-metodologik asoslari, lingvodidaktik imkoniyatlari hamda pedagogik samaradorligi tadqiq etilgan. Tadqiqot kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ til pedagogikasi, konstruktivistik taʼlim paradigmasi va English for Specific Purposes (ESP) metodologiyasi integratsiyasi asosida olib borildi. Eksperimental taʼlim jarayonida xalqaro logistika faoliyatiga oid autentik professional matnlar - multimodal transport hujjatlari, customs declaration forms, supply chain analytics reports, warehouse operation manuals va freight forwarding correspondence asosida profession-oriented reading tasks tizimi ishlab chiqildi.

ЛИНГВОДИДАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИИ ЧТЕНИЯ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ

Моксидил Юлдашева

Ташкентский университет Перфект

Кафедра гуманитарных наук

преподаватель английского языка

yuldosheva.m@perfectuniversity.uz

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: аутентичные материалы, ESP, английский язык для специальных целей, читательская профессиональная коммуникативная лингводидактика, терминология, интерпретативное чтение.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы, лингводидактические возможности и педагогическая эффективность использования аутентичных материалов при развитии компетенции чтения на английском языке у студентов-специалистов по логистике. Исследование проводилось на основе интеграции компетентностного подхода, коммуникативной языковой педагогики, конструктивистской образовательной парадигмы и методологии английского языка для специальных целей (ESP). В процессе экспериментального обучения была разработана система профессионально-ориентированных заданий на чтение, основанная на аутентичных профессиональных текстах,

связанных с международной логистической деятельностью – документах мультимодальных перевозок, таможенных декларациях, отчетах по анализу цепочки поставок, руководствах по складским операциям и корреспонденции экспедиторов.

Kirish. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida logistika tizimlari xalqaro savdo va transport-kommunikatsiya jarayonlarining strategik komponentiga aylanmoqda. Jahon iqtisodiy integratsiyasining jadallashuvi, multimodal transport tizimlarining rivojlanishi, transmilliy supply chain mexanizmlarining murakkablashuvi hamda raqamli logistika texnologiyalarining keng joriy etilishi logistika mutaxassislariga qo'yilayotgan professional talablarni tubdan o'zgartirmoqda. Zamonaviy logistika mutaxassisi nafaqat operatsion va menejerlik kompetensiyalariga, balki ingliz tilidagi professional hujjatlar, xalqaro logistika hisobotlari hamda transport-kommunikatsiya axborotlarini mustaqil tahlil qilish va interpretatsiya qilish ko'nikmalariga ham ega bo'lishi zarur.

Bugungi global logistika amaliyotida shipping instructions, bills of lading, customs documentation, warehouse reports, freight contracts va supply chain analytics kabi professional matnlar bilan ishlash logistika faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylangan. Shu sababli logistika yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi reading competence'ini rivojlantirish oliy ta'lim tizimining ustuvor lingvodidaktik vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Adabiyotlar sharxi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, logistika yo'nalishi talabalarining aksariyati grammatik bilim va umumiy leksik zaxiraga ega bo'lishlariga qaramasdan, autentik professional matnlarni tushunish, kasbiy terminologiyani interpretatsiya qilish hamda professional discourse strukturalarini anglashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Mazkur holat an'anaviy adaptatsiyalashgan o'quv matnlarining real professional kommunikativ muhitdan uzoqligi bilan izohlanadi. Soddalashtirilgan matnlar professional discourse'ning tabiiy lingvistik va pragmatik xususiyatlarini yetarli darajada aks ettirmaydi.

Chet tilini o'qitish metodikasida kommunikativ paradigma rivojlanishi bilan bir qatorda authentic materials'dan foydalanish konsepsiyasi ham muhim metodologik yo'nalish sifatida shakllandi. Gilmore (2007) authentic materials'ni real kommunikativ maqsadlar uchun yaratilgan va til o'rganuvchilar uchun maxsus soddalashtirilmagan materiallar sifatida tavsiflaydi. Mazkur materiallar tilning tabiiy qo'llanishini, pragmatik xususiyatlarini hamda real discourse strukturalarini aks ettiradi.

ESP metodologiyasi nuqtai nazaridan authentic materials professional kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Hutchinson va Waters (1987)

kasbiy yoʻnaltirilgan til taʼlimida professional ehtiyojlarga mos materiallardan foydalanish zarurligini taʼkidlaydi. Logistika ingliz tilida esa autentik matnlar occupational discourse patterns, professional terminology hamda communicative conventionsʼni shakllantirishga xizmat qiladi.

Reading competence zamonaviy lingvodidaktikada murakkab kognitiv-kommunikativ faoliyat sifatida talqin qilinadi. Anderson (1999) reading jarayonini matnni dekodlash emas, balki maʼno konstruksiyasi va interpretativ tafakkur jarayoni sifatida izohlaydi. Grabe (2009) akademik va professional reading jarayonida inferencing, skimming, scanning hamda discourse interpretation strategiyalarining markaziy ahamiyat kasb etishini taʼkidlaydi.

Konstruktivistik pedagogika nuqtai nazaridan, reading competence talabaning avvalgi bilimlari va yangi axborot oʻrtasidagi interaktiv kognitiv jarayon sifatida shakllanadi. Authentic materials esa talabalarning professional tajriba va kommunikativ ehtiyojlari bilan integratsiyalashgan holda meaningful learning environment yaratadi.

Mahalliy metodik tadqiqotlarda ham reading competenceʼni rivojlantirish masalalari keng oʻrganilgan. Jalolov (2012) chet tilida oʻqib tushunish koʻnikmasini kommunikativ kompetensiyaning strategik komponenti sifatida tavsiflaydi. Hoshimov va Yoqubov (2003) autentik matnlarning nutqiy va tafakkur faoliyatini rivojlantirishdagi metodik ahamiyatini asoslaydi. Muslimov (2015) innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida kompetensiyaviy reading strategiyalarini shakllantirish zarurligini qayd etadi.

Shunga qaramasdan, logistika yoʻnalishi talabalarining reading competenceʼini authentic materials asosida rivojlantirishning lingvodidaktik modeli yetarli darajada tadqiq qilinmagan. Mavjud ilmiy tadqiqotlarning asosiy qismi umumiy ESP yoki akademik reading muammolariga bagʻishlangan boʻlib, logistika ingliz tilining professional discourse xususiyatlari chuqur oʻrganilmagan.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi logistika faoliyatining autentik professional matnlari asosida profession-oriented reading tasks tizimini ishlab chiqish hamda uning reading competence rivojlanishiga taʼsirini eksperimental jihatdan asoslash bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot dizayni. Tadqiqot quasi-eksperimental dizayn asosida tashkil etildi. Tajriba-sinov ishlari 2025-2026-oʻquv yilida logistika yoʻnalishi 2-bosqich talabalarida olib borildi. Tadqiqotda jami 52 nafar respondent ishtirok etdi:

- tajriba guruhi - 26 nafar;
- nazorat guruhi - 26 nafar.

Nazorat guruhida reading mashgʻulotlari adaptatsiyalashgan oʻquv matnlari asosida olib borildi. Tajriba guruhida esa authentic materials asosidagi profession-oriented reading instruction metodikasi joriy etildi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatuv;
- diagnostik test;
- pre-test/post-test;
- reading assessment rubric;
- yarim strukturali intervyu;
- so‘rovnoma;
- matematik-statistik tahlil.

Authentic materials tizimi. Eksperimental mashg‘ulotlarda quyidagi autentik logistika materiallaridan foydalanildi:

- bill of lading;
- customs declaration forms;
- multimodal transport documentation;
- warehouse management reports;
- shipping contracts;
- freight forwarding correspondence;
- supply chain analytics reports;
- transportation schedules.

Mazkur materiallar xalqaro logistika kompaniyalari va professional logistika platformalarining real kommunikativ muhitidan tanlab olindi.

Reading tasklar tizimi. Reading competence rivojlantirish uchun quyidagi tasklardan foydalanildi:

- skimming tasks;
- scanning activities;
- inferencing exercises;
- terminology identification tasks;
- discourse interpretation activities;
- analytical reading tasks;
- document analysis exercises;
- critical reading discussions.

Baholash mezonlari. Reading competence quyidagi indikatorlar asosida baholandi:

Indikator	Mazmuni
Skimming	Asosiy mazmunni aniqlash
Scanning	Kerakli ma’lumotni topish
Inferencing	Kontekstual xulosa chiqarish

Lexical Recognition	Kasbiy terminologiyani anglash
Discourse Comprehension	Matn strukturasi tushunish
Professional Interpretation	Kasbiy interpretatsiya

Har bir indikator 10 ballik tizim asosida baholandi.

Muhokama va natijalar. Authentic materials asosida logistika yo‘nalishi talabalarining ingliz tilidagi reading competence‘ini rivojlantirishning metodik samaradorligini aniqlash.

Tadqiqot vazifalari

- logistika ingliz tilini o‘qitishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
- authentic materials‘ning lingvodidaktik imkoniyatlarini aniqlash;
- profession-oriented reading tasks tizimini ishlab chiqish;
- reading competence indikatorlarini aniqlash;
- eksperimental metodikaning samaradorligini statistik jihatdan asoslash;
- metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot gipotezasi. Agar logistika yo‘nalishi talabalarining reading mashg‘ulotlari authentic materials asosida tashkil etilsa, u holda talabalarining professional discourse comprehension, terminologik interpretatsiya hamda reading fluency ko‘rsatkichlari sezilarli darajada rivojlanadi.

Pre-test natijalari respondentlarning boshlang‘ich reading competence darajalari o‘rtasida sezilarli statistik farq mavjud emasligini ko‘rsatdi.

12 haftalik eksperimental ta‘lim yakunida tajriba guruhi ko‘rsatkichlarida sezilarli ijobiy dinamika kuzatildi.

Ko‘rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Skimming	8.5	6.9
Scanning	8.7	6.8
Inferencing	8.3	6.5
Lexical Recognition	8.8	6.7
Professional Interpretation	8.6	6.4

Student t-test natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

$p < 0.05$;

Cohen’s $d = 0.84$.

Mazkur natijalar authentic materials asosidagi metodikaning reading competence rivojlanishiga statistik jihatdan sezilarli ta‘sir ko‘rsatganligini tasdiqlaydi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra:

- 92% talabalar professional vocabulary boyiganligini;

- 89% respondentlar logistika hujjatlarini tushunish osonlashganligini;
- 87% talabalar reading motivation oshganligini;
- 90% respondentlar autentik materiallar kasbiy tayyorgarlikni kuchaytirganligini qayd etdilar.

Tadqiqot natijalari authentic materials logistika ingliz tilini o'qitishda yuqori lingvodidaktik potensialga ega ekanligini ko'rsatdi. Gilmore (2007) autentik materiallar real kommunikativ muhit bilan bog'langanligi sababli til o'rganish samaradorligini oshirishini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqotda ham autentik logistika matnlari reading competence rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Grabe (2009) professional reading jarayonida discourse awareness va inferencing strategiyalarining muhimligini qayd etadi. Eksperimental mashg'ulotlarda logistics reports hamda customs documentation bilan ishlash talabalarining professional discourse comprehension darajasini rivojlantirdi.

Anderson (1999) reading'ni interpretativ ma'no konstruksiyasi jarayoni sifatida talqin qiladi. Tadqiqot davomida analytical reading tasklari talabalarning contextual comprehension va critical interpretation ko'nikmalarini rivojlantirdi.

Nation (2001) vocabulary acquisition kontekstual reading asosida samaraliroq shakllanishini ta'kidlaydi. Eksperimental mashg'ulotlarda logistics terminology'ning autentik professional matnlar asosida qo'llanilishi lexical retention darajasini oshirdi.

Mahalliy metodistlardan Jalolov (2012) reading competence kommunikativ kompetensiyaning strategik komponenti ekanligini qayd etadi. Mazkur tadqiqot natijalari ham professional reading'ning logistika kommunikativ tayyorgarligida markaziy ahamiyat kasb etishini tasdiqladi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari logistika yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi reading competence'ni rivojlantirish jarayonida authentic materials'dan foydalanishning lingvodidaktik, kognitiv va kommunikativ jihatdan yuqori darajadagi metodik samaradorligini ilmiy-eksperimental asosda tasdiqladi. Olingan empirik natijalar shuni ko'rsatadiki, autentik professional matnlar asosida tashkil etilgan o'quv jarayoni talabalarning nafaqat til kompetensiyasini, balki kasbiy fikrlash, interpretativ tahlil hamda terminologik ongini ham kompleks tarzda rivojlantiradi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

- Authentic materials (real logistika hujjatlari, professional yozishmalar va transport-texnik matnlar) talabalarida professional reading competence'ning tizimli rivojlanishini ta'minlaydi, xususan skimming, scanning hamda inferencing kabi strategik o'qish ko'nikmalarini kognitiv darajada mustahkamlaydi.

- Autentik logistika matnlari o'quvchilarda terminologik tafakkur (terminological cognition) va professional discourse comprehensionni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa ularning kasbiy kommunikativ muhitga tez moslashuvchanligini oshiradi.

- Profession-oriented reading tasks (case-based, problem-solving va document interpretation vazifalari) talabalarda yuqori darajadagi analitik fikrlash, tanqidiy interpretatsiya va ma'lumotni qayta ishlash kompetensiyalarini rivojlantiradi.

- Authentic materials asosidagi ta'lim jarayoni talabalarning ichki o'quv motivatsiyasini (intrinsic motivation) kuchaytiradi hamda reading jarayoniga nisbatan kommunikativ va kasbiy qiziqishni oshiradi.

- Logistika sohasiga oid hujjatlar bilan ishlash (shipping documents, customs forms, freight reports) professional interpretative competence va real vaziyatda qaror qabul qilishga yo'naltirilgan lingvistik reflekslarni tezlashtiradi.

- ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi doirasida authentic materials'dan foydalanish kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ tayyorgarlikni tizimli shakllantiradi hamda akademik va professional diskurs o'rtasidagi metodik uzviylikni ta'minlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari logistika ingliz tilini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv va amaliyotga yo'naltirilgan (practice-oriented) metodikaning integratsiyasi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatdi. Bu esa o'quv jarayonida autentik materiallarni tizimli, bosqichma-bosqich va maqsadli qo'llash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Kelgusidagi tadqiqotlar yo'nalishida logistika ta'limini raqamlashtirish, xususan AI-supported reading platforms, adaptive learning systems hamda virtual logistics documentation environment kabi innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida qaraladi. Mazkur texnologiyalar autentik materiallar bilan ishlash jarayonini individualizatsiya qilish, o'quvchilarning reading behaviorini tahlil qilish hamda real-time feedback asosida kompetensiyani rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, autentik materiallarga asoslangan metodika logistika yo'nalishi talabalarining ingliz tilidagi reading kompetensiyasini rivojlantirishda nafaqat lingvistik, balki kognitiv, kasbiy va kommunikativ rivojlanishning integrativ modeli sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Azizxo'jayeva, N. (2013). Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. Toshkent: Cho'lpon.
2. Hoshimov, O., & Yoqubov, I. (2003). Ingliz tili o'qitish metodikasi. Toshkent: Sharq.
3. Ishmuhamedov, R. (2014). Ta'limda innovatsion texnologiyalar. Toshkent: Iste'dod.

4. Jalolov, J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
5. Karimov, U. (2021). *Professional English teaching methodology*. Samarqand: SamDU.
6. Muslimov, N. (2015). *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. Toshkent: Fan.
7. Rasulov, Z. (2022). *Oliy ta'limda xorijiy til kompetensiyasi*. Buxoro: BuxDU.
8. Saidahmedov, N. (2011). *Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya*. Toshkent: TDPU.
9. Tolipov, O., & Usmonboyeva, M. (2006). *Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari*. Toshkent: Fan.
10. Xatamova, N. (2020). *ESP ta'limida kommunikativ yondashuv*. Toshkent: Tafakkur.
11. Anderson, N. J. (1999). *Exploring second language reading*. Heinle & Heinle.
12. Brown, H. D. (2007). *Principles of language learning and teaching* (5th ed.). Pearson Education.
13. Gilmore, A. (2007). Authentic materials and authenticity in foreign language learning. *Language Teaching*, 40(2), 97–118.
14. Grabe, W. (2009). *Reading in a second language: Moving from theory to practice*. Cambridge University Press.
15. Harmer, J. (2007). *The practice of English language teaching* (4th ed.). Pearson Longman.
16. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for specific purposes: A learning-centered approach*. Cambridge University Press.
17. Nation, I. S. P. (2001). *Learning vocabulary in another language*. Cambridge University Press.
18. Nunan, D. (2004). *Task-based language teaching*. Cambridge University Press.
19. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and methods in language teaching* (3rd ed.). Cambridge University Press.
20. Wallace, C. (2003). *Critical reading in language education*. Palgrave Macmillan.